

YOSHLARNI KASBGA YO`NALTIRISHNING PSIXOLOGIK MUHIM JIHATLARI

Jumanova Shaxlo Amirovna

Sergeli tumani MMTB tasarrufidagi

68-umumta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yoshlarni kasbga yo'naltirish jarayonining psixologik asoslari, kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillar hamda samarali kasb tanlashni ta'minlovchi zamonaviy yondashuvlar yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, yoshlar, psixologiya, motivatsiya, qobiliyat, qiziqish, o'zini anglash.

KIRISH

Yoshlarni kasbga yo'naltirish bugungi ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki to'g'ri tanlangan kasb insonning kelajakdagi muvaffaqiyati, jamiyatdagi o'rni va hayotiy qoniqishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kasb tanlash jarayoni psixologik jihatdan murakkab bo'lib, u o'smirning ichki dunyosi, qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli kasbga yo'naltirishda faqat tashqi omillar emas, balki ichki psixologik xususiyatlar ham inobatga olinishi kerak.

Eng muhim psixologik jihatlardan biri — o'zini anglash jarayonidir. O'quvchi o'z kuchli va zaif tomonlarini bilsa, u o'ziga mos kasbni tanlashda to'g'ri qaror qabul qila oladi. Yana bir muhim omil — motivatsiyadir. Ichki motivatsiyasi kuchli bo'lgan yoshlar kasb tanlashda barqaror bo'ladi va o'z maqsadlariga erishishga intiladi. Tashqi bosim asosida tanlangan kasb esa ko'pincha qoniqarsiz natijalarga olib keladi.

Qiziqish va qobiliyatlar ham kasb tanlashda asosiy rol o'ynaydi. Har bir insonning ma'lum bir soha yoki faoliyat turiga moyilligi bo'ladi. Bu moyillik to'g'ri aniqlansa, kelajakda muvaffaqiyatga erishish imkoniyati oshadi.

Kasbga yo'naltirishda psixologik diagnostika usullari muhim ahamiyatga ega. Testlar, so'rovnomalar va suhbatlar orqali o'quvchining shaxsiy xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, kasb tanishtiruv tadbirlari ham samarali hisoblanadi. Turli kasb egalari bilan uchrashuvlar, amaliy mashg'ulotlar va ekskursiyalar yoshlarning kasblar haqidagi tasavvurini kengaytiradi. Ota-onalar va o'qituvchilar hamkorligi ham muhimdir. Ular o'quvchiga bosim o'tkazmasdan, uning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi kerak. Zamonaviy yondashuvlarda raqamli platformalar va onlayn testlar ham keng qo'llanilmoqda. Bu usullar o'quvchilarga o'zlarini mustaqil tahlil qilish imkonini beradi.

Kishining faolligi extiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Kishining extiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o'z extiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maksadga yo'naltirilgan jarayon sifatida aloxida ajralib turadi. O'quvchilarni tarbiyasiga nisbatan qo'yayotgan eng muxim talablardan biri ularda mexnat qilish extiyojini tarbiyalashdan iboratdir. Mexnat qilishga bo'lgan extiyojning yanada rivojlanishi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish, mexnat sharoitlarini yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish natijasida, faqat ijtimoiy foydali mexnatdagina o'zini namoyon eta oladigan bunyodkorlik kuchlarini jonlantirish oqibatida yuz beradi.

Umumiy ta'lim maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida o'quvchilarning mexnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirilishi qanday rol o'ynashiga aloxida e'tibor berilgan. Extiyojlar kelib chiqishiga ko'ra tabiiy va madaniy bo'lishi mumkin. Tabiiy extiyojlarda kishining faollik kasb etayotgan faoliyati, uning xayoti va uning avlodi xayotini saklash uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarga bo'ysunganlik ifodalanadi. Madaniy extiyojlarda odamning faol faoliyati insoniyat madaniyatining maxsuliga bog'liq ekanligi ifodalanadi; uning ildizlari butunlay kishilik tarixining sarxadlariga borib taqaladi.

Ma'naviy jixatdan o'rinli bo'lgan extiyoj odam yashayotgan jamiyatning talablariga javob beradigan, ana shu jamiyatda qabul qilingan didlar, baxolar va dunyoqarashga mos keladigan extiyojlardir. Extiyojlar o'z predmetining xarakteriga ko'ra moddiy va ma'naviy bo'lishi mumkin. Moddiy extiyojlarda kishining moddiy madaniyat predmetlariga qaramligi (ovqatlanishiga, kiyinishiga, uy-joyga, maishiy turmush ashyolariga va boshqa narsalarga extiyoj sezish) ma'naviy extiyojlarda esa ijtimoiy ong maxsuliga tobeligi ifodalanadi. Ma'naviy extiyojlar ma'naviy madaniyatni yaratish va o'zgartirishda o'z aksini topadi. O'quvchi o'z fikr-muloxazalari va tuyg'ularini boshqalar bilan baxam ko'rishga gazetalar, kitoblar va jurnallar o'qishga kinofilmlar va spektakllar ko'rishga, muzika tinglashga va shu kabilarga extiyoj sezadi. Ma'naviy extiyojlar moddiy extiyojlar bilan uzviy bog'liqdir. Ma'naviy extiyojlarni qondirish uchun, moddiy extiyojlar predmeti xisoblanmish moddiy narsalar (kitoblar, gazetalar, yozuv va nota qog'ozlari, buyoqlar va shu kabilar) talab qilinishi shubxasiz. Shu tariqa, kelib chiqishiga ko'ra, tabiiy, shu bilan birga predmetiga ko'ra moddiy, kelib chiqishiga ko'ra madaniy xisoblangan extiyoj yo moddiy bo'lishi, yo predmetiga ko'ra maonaviy bo'lishi mumkin.

Agar xayvonlarning hatti-xarakati butunlay atrof-muhit bilan belgilansa, kishining faolligi uning ilk yoshligidanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko'ra yo'naltirilib boriladi. harakatning bu turi shu qadar o'ziga xoslikka egaki, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasida uning atash uchun maxsus termin – kasb faoliyati termini qo'llaniladi. Inson kasb faolligida «xarakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. SHaxs aynan turli kasb faolliklar doirasida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi xam. Demak, kasb faolligi yoki inson kasb faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson kasb faolligini mujassamlashtiruvchi xarakatlar jarayoni kasb faoliyati deb yuritiladi. Ya'ni, kasb faoliyati – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turlituman extiyojlardan kelib chiqadigan, xamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan uziga xos faollik shaklidir. Bu – moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mexnat faoliyati, bu – yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati va shunga o'xshash.

Har qanday kasb faoliyati real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Qilinayotgan xar bir xarakterat ma`lum narsaga – predmetga qartilgani uchun xam, faoliyat predmetli xarakteratlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Masalan, ma`ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli xarakati yozuvga qaratilgan bo`lib, u avvalo o`sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o`zgarishlar qilish orqali bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo`ladi. Kasb faoliyatining va uni tashkil etuvchi predmetli xarakteratlarni aynan nimalarga yo`naltirilganligiga qarab, avvalo tashki va ichki kasb faoliyati farqlanadi.

Tashki kasbiy faoliyat shaxsni o`rab turgan tashqi muxit va undagi narsa va xodisalarni o`zgartirishga qaratilgan faoliyat bo`lsa, ichki kasbiy faoliyat birinchi navbatda aqliy faoliyat bo`lib, u sof kasbiy psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik kasbiy faoliyat tashki predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashki faoliyat ro`y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, asta-sekin bu xarakteratlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Har qanday sharoitda ham barcha xarakteratlar ham ichki psixologik, ham tashqi-muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Xar qanday faoliyat tarkibida xam aqliy, xam jismoniy-motor xarakteratlar mujassam bo`ladi. Agar o`ylayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi kasbiy faoliyat aqliy bo`lgani bilan uning peshonalari, ko`zlari, xattoki, qo`l xarakteratlari juda muxim va jiddiy fikr xususida bir to`xtamga kelolmayotganligidan, yoki yangi fikrni topib undan mamnuniyat xis qilayotganligidan darak beradi. Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soxa mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o`quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiliqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so`ngra kasbga yo`llash kerak.

Kasbga yo`naltirish - bu ilmiy asoslangan va o`zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o`zini qiziqish va qobiliyatlarini xisobga olib, turg`un kasb tanlash uchun xayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir. Bu tadbirlar jamiyat va shaxs qiziqishlarini umumlashtiradi. Kasbga yo`naltirish tizimi xar bir o`zining vazifalariga va yechish metodlariga ega bo`lgan

tizimlar va boshqichlardan iboratdir. Butunligicha u maktab imkoniyati va vazifalari chegarasidan chiqib ketadi, umumdavlat tadbirlariga aylanib, qator boshqa ishtirokchilarning qo`shilishini talab qiladi. Bular kasb-xunar kollejlari, oliy o`quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalarini, qishloq xo`jaligi, transport va aloqa tizimi, kasbga yo`naltirish shaxs uchun individual, shuningdek, jamiyat uchun ahamiyatga egadir. Bizning qobiliyatimizning aniq bir kasbga adashib tushishi tez-tez shaxsiy muvaffaqiyotsizlik bilan tugaydi. Ammo bu xatolardan shaxsning o`zi, oilasi qiynaladi, shuningdek, butun jamiyat xam qiynaladi.

Yoshlarni kasbga yo`naltirishda faoliyat masalasi muhim masala hisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo`nalishda xarakat qilishga undaydigan extiyojlar shaxsning faolligi manbai bo`lib hisoblanadi. Extiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir. Kishining faolligi extiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo`ladi. Kishining extiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o`z extiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maqsadga yo`naltirilgan jarayon sifatida alohida ajralib turadi.

Yoshlarning kasb tanlashi asosan, o`rta maktabdan boshlanadi, shunga ko`ra, o`qituvchilar jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab o`quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o`zini-o`zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turadi.

Bundan tashqari, psixologlar o`quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy- tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

O`smirlar va ilk o`spirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo`lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo`lganligidan bu jarayonda otaonalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko`p hollarda

kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat'iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar [4]. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni yosh bosqichlarida o'quvchilarda quyidagi mazmunga ega bo'ladi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad - ularni mehnat, kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirishdan iborat. 5-7 sinf (o'rta yoshdagi) o'quvchilarini kasbga yo'naltirish mazmuni, ulardagi qiziqish, layoqat, shaxs sifatida jamiyatda tutgan o'rnini to'g'risidagi tushunchalar va kasb tanlash ko'nikmasini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Bo'lg'usi kasbiy faoliyatlar bu yoshdagi o'quvchilar uchun hayotdagi o'z o'rnini belgilash va tayyorlashda turtki, o'z shakllanish imkoniyatlarini ochishi va kasb tanlashi uchun zarur bo'ladi. Bu yoshdagi o'quvchilarda ijtimoiy-psixologik layoqatlar, o'zi ulg'ayotganligida, yangi bir pozitsiyada o'ziga e'tiborida, atrofga va olamga munosabatida shakllanishi kerak.

8-9 sinf o'quvchilarida kasbga yo'naltirish ishlari mazmuni shaxsning ma'naviy xislatlari va jamiyat oldidagi burchi javobgarlik xislatlarini shakllantirish bilan ajralib turadi. Bu esa ulardan mustaqillik, tashabbus bilan chiqish, mustaqil qaror qabil qilish xatt-xarakatlari natijasini bilishi va faoliyatini nimaga olib kelishini sezishi bilan belgilanadi. 8-9 sinf o'quvchilarida oldingi bosqichlarda olgan bilimlari va tajribalari asosida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kasbga yo'naltirish faoliyat amalga oshiriladi.

1. O'quv va maxsus fanlarni chuqur o'rganish asosida;
2. Diqqatini tanlagan faoliyatida kasbiy muxim sifatlarini shakllantiririshida;
3. Kasbiy rejalari ustidan nazorat va ularni asoslanish darajasini ochib berishda;
4. Kasbiy faoliyatga o'zini tayyorlash yo'llari, o'ziga tashxis qo'yish, natijalarini baxolashda;
5. Ijtimoiy kasbiy ko'nikish, kasbni tanlash sabablari, kasbiy yo'nalish asoslari shakllanishida.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni kasbga yoʻnaltirishda psixologik jihatlarni hisobga olish ularning toʻgʻri kasb tanlashiga va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs boʻlib shakllanishiga xizmat qiladi. Oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirishda faoliyat masalasi muhim masala xisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yoʻnalishda xarakat qilishga undaydigan ehtiyojlar shaxsning faolligi manbai boʻlib xisoblanadi. Ehtiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir. Shuningdek, yoshlarning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida maktabda ilgʻor kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va maʼruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq boʻladi. Ushbu tadbirlar oʻquvchining shu kasbga boʻlgan qiziqishini yanada qatʼiylashishini vujudga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Карандашев В.Н. Психология введение в профессию. 2- е изд - М.: Смысл, 2003. - 19 с.
2. Nabijonova D. Oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. - 38 b
3. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. “Umumiy psixologiya”. - Toshkent: Mumtoz soʻz, 2010. – 97 b
4. Gʻoziev E.Gʻ. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent: Noshir , 2010.
5. Ziyonet